

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI – KELAJAGIMIZ VA ISTIQBOLIMIZ POYDEVORI

Kurbanov Ravshan Raimjonovich

*TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik
litseyi o'qituvchisi 3-darajali yurist
O'zbekiston tarixi- (Tarix) ixtisosligi
bo'yicha mustaqil izlanuvchi
Tel:93.914-03-87*

*E-mail: kurbanovravshan@gmail.com
Namangan viloyati yuridik texnikumi
ingliz tili fani o'qituvchisi*

Xamrayeva Sojida Qodirbekovna

*Tel:91.088-82-82
E-mail: Sojida.xamrayeva@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimizdagi iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish, yoshlarning intilishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli hil kontsert, festival, ko'rik-tanlovlар yoshlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Madaniyat, ko'rik-tanlov, xalqaro festival, tanlov, umumjahon, islohot.*

Abstract: *In this article, the talented youth of our country support, encourage them, the aspirations of young people in order to support, various concerts, festivals, pageants, the attitude of young people to national-spiritual values was highlighted.*

Key words: *Culture, pageant, international festival, competition, universal, reform.*

Аннотация: В этой статье талантливая молодежь нашей страны поддерживать, поощрять их, стремления молодых людей В целях поддержки проводились различные концерты, фестивали, конкурсы, подчеркивалось отношение молодежи к национально-духовным ценностям.

Ключевые слова: Культура, театрализованное представление, международный фестиваль, конкурс, универсал, реформа.

Jonajon O'zbekistonimizda yoshlarning hayotiy muhim masalalarini hal etishga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilayotgani samarasida yoshlarimiz barcha sohalarda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

Mamalkatimizda o'tgan 2017–2021 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan iste'dodli yoshlarni

qo'llab-quvvatlash, ularni rag'batlantirish, yoshlarning intilishlarini

qo'llab-quvvatlash maqsadida turli hil kontsert, festival, ko'rik-tanlov va tadbirlari o'tkazildi.

Jumladan, "Yoshlik bahori" yosh opera ijrochilarining respublika

ko'rik-festivalining yakuniy saralash bosqichi o'tkaziladi. Ko'rik-festivalda 18 yoshdan 32 yoshgacha bo'lgan yosh opera ijrochilar o'zaro bellashadilar. Yosh operachilarimizni sinov maydonida charxlovchi festivalda o'tgan yillar davomida 80 nafardan ziyyod ishtirokchi o'zaro bellashgan bo'lsalar, bu yil ularning soni 200 nafarga ortgani jahon san'ati durdonasi sanalgan opera san'atiga o'zbek yoshlarning qiziqishi tobora ortib borayotganidan darak beradi. Shu bilan birga, Yosh ijodkorlarning, ayniqsa chekka qishloq va mahallalardagi iqtidorli yoshlarning noyob iste'dodini ro'yobga chiqarish va ular faoliyatini tizimli ravishda keng targ'ib etish yoshlarni iste'dodini ro'yobga chiqarish maqsadida "Sozlar navosi" xalq cholg'u ijrochilarining respublika tanlovi o'tkazildi. Mazkur tanlovda o'tgan yillarda 80 nafar ishtirokchi yakuniy saralash bosqichida ishtirok etgan bo'lsa, so'nggi besh yil davomida xalq cholg'ulari va cholg'uchilik san'ati yo'nalishida ijod qilib o'z iste'dodini sinovdan o'tkazmoqchi bo'lgan ishtirokchilar soni 322 nafarga oshgan.

Shuningdek, 25 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan yakka ijrochilar o'rtasida tashkil etiladigan hamda milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni o'zida aks ettirgan "Onam aytgan allalar" respublika festivalida 2017 yilga qadar 268 nafar ishtirokchi o'z ijod namunasini namoyish etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ishtirokchilar soni jami 400 nafarga oshganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Respublikamiz hududi bo'yicha 832 ta tuman madaniyat markazlarida iqtidorli yoshlardan iborat "Boychechak" bolalar, "Parvoz" o'smirlar, "Iftixor" yoshlari ijodiy jamoalari tashkil etilib, jami 25 650 nafar o'quvchi-yoshlari jalb etilgan. Madaniyat va va san'at yo'nalishlari bo'yicha infratuzilma ob'ektlari soni 2017 yil 396 ta bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bu ko'rsatgich 428 tani tashkil etadi. O'tgan besh yil davomida tasarrufdagi ob'ektlar soni 32 taga ko'paygan .

Hozirgi kunda respublika bo'yicha 322 ta bolalar musiqa va san'at maktablari, 2 ta respublika kollejlari, 31 ta ixtisoslashtirilgan madaniyat va san'at maktablari hamda maktab internatlari, 9 ta oliy ta'lim muassasalari, 39 ta teatr hamda 29 ta respublika tashkilotlari faoliyat yuritib kelmoqda.

Madaniyat vazirligi tasarrufidagi madaniyat markazlari soni 2017 yil holatiga 826 ta bo'lgan bo'lsa, ushbu markazlarda doimiy to'garaklarga qamrab olingan yoshlari soni 48 666 nafarga yetgan. Bugungi kunga kelib bu ko'rsatgich 54 433 nafarni tashkil etmoqda. Madaniyat va san'at yo'nalishida 2017 yilda 10 ta tanlovlari tashkil etilgan bo'lsa, unda 38 000 nafardan ortiq yoshlari ishtirok etganlar.

2022 yilga kelib tanlovlari soni deyarli 2 barobar oshgan bo'lib, ularning soni 24 tani tashkil etib, 62 000 nafar iqtidorli ijodkor yoshlari kashf etilgan .

Bugun O'zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. 2017-yil 30-iyunda mamlakatimiz yoshlari hayotida yangi sahifa ochildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan O'zbekiston yoshlari ittifoqi tashkil etildi, uning asosiy faoliyati yoshlarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishga qaratildi. Xususan, yaqinda hayotga tadbiq etilgan "MODUL 5" loyihasi fikrimizning yorqin isbotidir. Ushbu loyihada

yurtimizdagi muvaffaqiyatli, o'z ishining ustasi bo'lgan hamda hayoti davomida qator yutuqlarga erishgan yigit-qizlar mahorat ma'ruzalari bilan ishtirok etib, yoshlar bilan o'z tajribalarini bo'lismashdilar. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – yoshlarni ruhlantirish, yangi maqsadlar sari ilhomlantirish . Bundan tashqari, yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otgan yana bir omadli loyihalardan biri "Chegarasiz" nomi ostida tayyorlanayotgan motivatsion video roliklardir. Mazkur video roliklarda jismoniy imkoniyati cheklangan, ammo hayotdan umidi katta bo'lgan, ulkan maqsadlarni ko'zlagan, hatto yuqori natijalarga erishib kelayotgan yoshlarning hayot yo'li yoritib berilib, nazariy va amaliy jihatdan ularni kelajakdagi faoliyati masallariga yechim topish vazifasi qo'yilishi beziz emas .

Hozirgi kunda 832 ta madaniyat markazlarida jami 4100 ta to'garak tashkil etilgan bo'lib, doimiy ishtirokchilar soni 54443 nafarni tashkil etadi. 2021 yil davomida respublikadagi 2285 ta umumta'lim maktablari va 26 ta o'rta-maxsus ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 348 ta musiqa ijrochiligi to'garagi, 43 ta teatr studiyasi va 59 ta havaskorlik bolalar va o'smir o'g'il-qizlar ansamblari tashkil etilib, jami 3600 nafarga yaqin o'quvchi-yoshlar qamrab olindi. Shuningdek, madaniyat markazlarida o'tgan yil davomida 126 850 ta madaniy tadbirlar tashkil etildi .

2022-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi madaniyat markazlarida jami 456 ta ommaviy-madaniy tadbir hamda 2 ta respublika ko'rik-tanlovi tashkil etildi.

Xususan, yosh ijodkorlarni rag'batlantirish va elga tanitish bo'yicha o'ziga xos ko'zguga aylangan "Nihol" mukofotining tuman (shahar) bosqichlarga 14 200 nafardan ziyod ijodkor yoshlar jalg qilinib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichlarida 4067 nafar, yakuniy respublika bosqichida 173 nafar yosh iste'dod egalari ishtirok etdilar. Ulardan 30 nafari joriy yil 15 aprel kuni "Madaniyat va san'at xodimlari kuni" munosabati bilan "Xalqlar do'stligi" san'at saroyida "Nihol" mukofoti bilan taqdirlandilar.

Shuningdek, Samarqand shahrida imkoniyati cheklangan yosh ijodkorlar o'rtasida "Iste'dod egalari" nomli respublika ko'rik-tanlovi yuqori saviyada tashkil etildi va o'tkazildi. Ushbu tanloving hududiy bosqichlarida 100 nafardan ziyod yoshlar ishtirok etgan bo'lsa respublika bosqichida 40 nafar ishtirokchi qatnashib, 9 nafar imkoniyati cheklangan yosh ijodkorlar g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 apreldagi PF-6208-sod Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona viloyatida "Ma'murjon Uzoqov" nomidagi respublika ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Tanloving hududiy bosqichlarida 360 nafardan ziyod yoshlar ishtirok etgan bo'lsa, respublika bosqichida 36 nafar ishtirokchi qatnashib 5 nafar g'oliblar aniqlandi hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz yilligi munosabati bilan "Madaniyat va san'at haftaligi"ni tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 111-sod bayoni hamda Madaniyat vazirining 2021 yil 5 noyabrdagi 451-sod buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida 2021 yil 15-20 noyabrь

kunlari Toshkent shahrida “Madaniyat va san'at haftaligi” o'tkazildi. Ushbu haftalik doirasida hududlardan 100 nafar yosh blogerlar, yosh rejissyorlar, ommaviy tadbir rejissyorlari, rassomlar, baletmeysterlardan iborat “Yoshlar klubi” a'zolari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida bir haftalik o'quv kurslarida malaka oshirib qaytdilar .

2022 yil 26-27 may kunlari “Yoshlik bahori” yosh opera ijrochilari tanlovi o'tkazildi. Tanlovning tuman (shahar) bosqichida 500 nafardan ziyod yoshlar ishtirok etdilar. Yakuniy respublika bosqichi Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi “Opera san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati”da o'tkazilib, unda 10 nafar yosh operachilar g'olib bo'ldilar.

2022 yil yanvar-mart oylarida madaniyat markazlarida tashkil etilgan “Parvoz”, “Iftihor” o'smirlar va yoshlar ijodiy jamoalari o'rtasida musiqa ijrochiligi va xoreografiya yo'nalishida respublika tanlovi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldag'i PF-27-sod Farmoni bilan 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 236-band ijrosi yuzasidan “Havaskor ijodkor yoshlar teatr-studiyalari” ko'rik-festivali hamda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “Madaniyat va ma'rifat” telekanali bilan hamkorlikda ikki bosqichli “Yangi O'zbekistonning yangi iste'dodlari” qo'shiqlar teletanlovi yuqori saviyada o'tkazildi. Shular qatorida, joriy yil aprel oyidan boshlab “ZO'R TV” telekanalida “Artist” teleloyihasi boshlandi. Teleloyihada ishtirok etish uchun 1600 nafar yoshlar ariza topshirgan, shundan 50 nafari saralab olinib finalda ishtirok etishdi. Yakuniy televizion bosqichida 20 nafar yoshlar qatnashdi. Ushbu yoshlar 5 oy davomida televizion dasturda o'z aro bellashdi. Ularga baho berish uchun 20 nafardan oshiq mahoratli va taniqli soha mutaxassislar jalb qilindi. Joriy yilning 30-sentyabr kuni final bosqichi tasvirga olindi, unda 1,2,3,4-o'rin g'oliblari aniqlandi. G'oliblar homiyalar tomonidan 1-o'rin g'olib uchun “Trekker” avtomobili, 2-o'ringa 2 kishilik chet elga sayohat hamda vaucherlar, 3-va 4- o'rin g'oliblari tashkilotchilar tomonidan 5 mln so'mlik sertifikat va homiyalar tomonidan vaucher bilan taqdirlandi. Shuningdek, “Eng aktiv tomoshabin” nominatsiyasida g'olibga “Trekker” avtomobili sovg'a qilindi. Ushbu loyihani televide niye orqali 5 mln. dan ortiq teletomosha qilishdi va ijtimoyi tarmoqlar orqali 2 mln.dan oshiq auditoriya kuzatdi.

Xulosa o'rnioda bularning barchasi O'zbekistonda iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab quvatlash borasidagi ishlar ko'lami tobora kengayganligini, va yoshlarimizni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishlari, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashga va yuksak marralarga erishishga xizmat qilishi uchun shart-sharoit yaratiganligidan dalolatdir.